



O‘ZBEGIMNING VATANPARVAR RUSIYZABON SHOIRI –
ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG

Murodova Nigora Xayriddin qizi

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz Filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi
nigora06m@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqola O‘zbekiston xalq shoiri, tarjimon va jamoatchilik arbobi Aleksandr Faynbergning hayoti va sermahsul ijodiy merosi haqida gapirib, uning hayoti va adabiy faoliyati haqida ma‘lumot beradi. Faoliyatidagi chuqur badiiy prinsiplar, millatlararo do‘stlikka qo‘shgan ulushi, tarjimonlikdagi yutuqlari va adabiyotdagi ahamiyati ilmiy-nazariy tomonidan o‘rganiladi. Faynberg ijodini umumiy poetik ruhiyat, O‘zbekiston madaniy hayotida qanday ahamiyatga ega ekani ko‘rsatilib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek-rus adabiy aloqalari, she‘riyat, tarjima, kino, millatlararo do‘stlik, poetik ruhiyat.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о жизни и плодотворном творческом наследии Народного поэта Узбекистана, переводчика и общественного деятеля Александра Файнберга, приводятся сведения о его жизни и литературной деятельности. Научно и теоретически изучаются глубокие художественные принципы его творчества, его вклад в межэтническую дружбу, его достижения в переводе и его значение в литературе. Показан общий поэтический дух и значение творчества Файнберга в культурной жизни Узбекистана.*

Ключевые слова: *Узбекско-российские литературные связи, поэзия, перевод, кинематограф, межнациональная дружба, поэтический дух.*

Abstract: *This article tells about the life and fruitful creative heritage of the People's poet of Uzbekistan, translator and public figure Alexander Feinberg, provides information about his life and literary activities. The deep artistic principles of his work, his contribution to interethnic friendship, his achievements in translation and his significance in literature are studied scientifically and theoretically. The general poetic spirit and the significance of Feinberg's work in the cultural life of Uzbekistan are shown.*

Keywords: *Uzbek-Russian literary relations, poetry, translation, cinema, interethnic friendship, poetic spirit.*

KIRISH. “Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak, barcha baland so‘zlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki, u aslida, noyob shoir va tarjimon edi. Rus tilida so‘zlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli o‘lkamizga shunchalik samimiy qo‘shiq kuylashi mumkin emas”.

(Abdulla Oripov)



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Haqiqiy adabiyot — bu san‘atkorlik zavqi bilan yaratilgan go‘zal va muhtasham asardir. Faqat kuchli shaxsiyat, betakror uslub, katta iste‘dod va ilhom bilan yozilgan asarlarga millatning ruhini yuksaltiradi, ko‘nglini o‘stiradi. Shu o‘rinda A. Cho‘lponning hikmatli bir so‘zi yodimizga tushadi: “Hech to‘xtamasdan harakat qilub turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar”. Ushbu chuqur mazmunli so‘zlarga qo‘shimcha tarzda aytish mumkinki, adabiyot nafaqat ruhni poklaydi, balki insonni o‘zligini anglash, tarixini, tilini, madaniyatini sevish va qadrlash sari yetaklovchi ma’naviy yo‘lchi yulduzdir.

Shunday purviqor fikrlar zamirida ancha yillardan buyon o‘zbek adabiyoti rivojiga o‘ziga xos ta‘sir ko‘rsatib kelayotgan, yuragida o‘zbek xalqining madaniyatiga nisbatan chuqur qiziqish va samimiy hurmat-ehtirom jo bo‘lgan, asarlarida esa insonning insonga har qanday og‘ir vaziyatda yordam qo‘lini uzatishi, hamisha madadkor bo‘lishga tayyorligi hamda xalqimizning asrab-avaylab saqlanishi lozim bo‘lgan nozik ohanglari o‘z ifodasini topgan betakror rusiyzabon qalam sohibi O‘zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg haqida so‘z yuritmoqni jazm etdik.

Aleksandr Arkadevich Faynberg 1939-yil 2-noyabr kuni Toshkent shahrida tug‘ilgan. Uning ota-onasi ikki yil avval, ya‘ni 1937-yilda Novosibirsk shahridan Toshkentga ko‘chib kelgan. Faynbergning butun bolalik davri sobiq Jukovskiy ko‘chasida o‘tgan. Uning hayoti va ijodi Toshkent shahri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u uzoq yillar davomida O‘zbekiston madaniy hayotida faol ishtirok etgan. U O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi sifatida ham tanilgan.

Aleksandr Faynbergning ijodiy merosi serqirraligi, badiiy qudrati va xalq qalbiga yaqinligi bilan alohida tahsinga loyiqdir. U Toshkent tipografiya texnikumida tahsil olayotgan davridayoq o‘zining ilk she‘riy to‘plami – “Velosiped yo‘lakchasi” bilan adabiyot maydoniga dadil kirib keldi va tez orada o‘zbek adabiyotining ilg‘or namoyandalaridan biriga aylandi. Shundan so‘ng uning ijodiy faoliyati yanada keng quloq yozdi: ketma-ket o‘ndan ortiq she‘riy to‘plamlari, ssenariylari asosida suratga olingan filmlar, tarjimalar va turli nashrlarda bosilgan asarlari e‘lon qilindi. “Soniya”, “Erkin sonetlar”, “She‘rlar”, “Olis ko‘priklar”, “Qisqa to‘lqin”, “Yoyma to‘r”, “Ijobat” kabi to‘plamlar uning ijodiga mansub bo‘lib, ularda nafaqat lirik kayfiyat, balki insoniylik, mehr-oqibat va hayot falsafasi chuqur ifodasini topgan.

Faynberg she‘rlari O‘zbekistonning nufuzli jurnallari – “Yoshlik”, “Sharq yulduzi”, “Yangi dunyo”, “Yangi Volga”, “Smena” kabi nashrlarda muntazam chop etilib kelgan. Ayni vaqtda uning ijodi xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilgan bo‘lib, she‘rlari AQSh, Kanada, Isroil kabi mamlakatlarning davriy nashrlarida ham bosilgan. Shoirning ijodidagi yana bir muhim yo‘nalish - bu ssenariynavislik va tarjimonlik faoliyatidir. U ko‘plab filmlar uchun ssenariylar yozgan. Xususan, “O‘zbekfilm” kinostudiyasida suratga olingan “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, “Qandahorda toblanganlar”, shuningdek “Tojikfilm” kinostudiyasida ishlangan “Jinoyatchi va oqlovchilar” filmlari shoirning ijodiy salohiyatidan





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



dalolat beradi. Yana alohida ta’kidlash lozim: 1999-yilda, “Paxtakor” futbol jamoasining fojiali halokati yuz berganining 20 yilligi munosabati bilan suratga olingan “Osmondagi stadion” nomli film ham aynan Aleksandr Faynberg ssenariysi asosida yaratilgan. Shuningdek, 1997-yilda ekran yuzini ko‘rgan “Issiq quyosh ostidagi uy” filmining ham ssenariy muallifi aynan u bo‘lgan.

Faynbergning ssenariylari asosida to‘rtta badiiy film va yigirmadan ortiq animatsion (multiplikatsion) filmlar suratga olingani uning qanchalar sermahsul va ijodiy salohiyatli shoir-ekranarx bo‘lganini ko‘rsatadi. Qalban o‘zbek bo‘lgan bu rusiyzabon ijodkorning o‘ta serqirra va badiiy chuqur ijodi 2008-yilda munosib e’tirof etilib, unga Rossiya Federatsiyasi Prezidentining farmoni bilan Pushkin medali topshirilgan.

Faynberg she’riyatida nafaqat u yashagan davr hayotining chizgilari ko‘rini b turadi, balki O‘zbekiston havosi, osmoni, tuprog‘i, eli, bir so‘z bilan aytganda, butun borlig‘i sezilib turadi. Shu jumladan, u o‘zbek choyxonasining sevimli va mashhur taomi bo‘lgan palov tasvirini “Rubayat torlari” she’rida tasvirlab bergan.

Aleksandr Faynbergning bolalik yillari Ikkinchi jahon urushi davriga to‘g‘ri kelgani bois, uning she’riyatida o‘tmish va bugun, G‘arb va Sharq madaniyati hamda qadriyatleri badiiy uyg‘unlikda aks etadi. Shoir o‘ziga xos poetik olam yaratgan bo‘lib, bu olamda lirik qahramon o‘zgaga mehr va shafqat qo‘lini cho‘zadigan, yurtda sodir bo‘layotgan iztirobli voqealardan chuqur qayg‘u chekadigan inson timsolida gavdalanadi.

Aleksandr Faynberg she’riyati nafaqat estetik go‘zalligi, balki ma’naviy chuqurligi bilan ham ajralib turadi. Uning she’rlarida rang-barang obrazlar, falsafiy teranlik va nozik tuyg‘ular yorqin ifodasini topgan. Shoir so‘zni chuqur his qilgan, bu hissiyotlarni esa o‘quvchi qalbiga mahorat bilan singdirgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi.

Faynberg o‘zbek xalqining madaniyati, hayot tarzi, ruhiy olami bilan shunchalik uyg‘unlashganki, bu uyg‘unlik uning ijodida tabiiy aks etadi. U O‘zbekistonda yashadi, ijod qildi; bu yurtning havosi, osmoni, tuprog‘i va elini, bir so‘z bilan aytganda, butun borlig‘ini yurakdan sevdi. Shoir o‘zining betakror asarlarida el-u yurtimizni yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etdi, o‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.

Faynberg ijodi keng qamrovli va sermahsul bo‘lib, uning ijodiy salohiyati faqat she’riyat bilangina cheklanmaydi. Badiiy tarjima ham shoir faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbek she’riyatini chuqur bilgan Faynberg Alisher Navoiy g‘azallarining o‘n jildlik nashrida faol qatnashgan. Shuningdek, u ko‘plab taniqli o‘zbek shoirlarining, jumladan, Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni”, Abdulla Oripov, Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Sayyid va Omon Matjonning asarlarini rus tiliga tarjima qilib, ularni rusiyzabon o‘quvchilar e’tiboriga yetkazdi. Toshkentda chop etilgan “Oqqushlar galasi” to‘plami va Moskvada nashr qilingan boshqa asarlar bu yo‘nalishdagi izchil mehnat samarasidir.

E’tiborlisi shundaki, Faynbergning o‘z she’rlari ham o‘zbek tiliga tarjima qilinib, “Chig‘ir” nomli to‘plamda nashr etilgan. Bu esa uning ijodiga ikki tilda baho berilayotganining dalilidir.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Aleksandr Faynberg ijodining yana bir muhim jihati - istiqlol ruhining undagi chuqur aksidir. Shoir mustaqillik g‘oyalarini, milliy iftixor va qadriyatlarni asarlarida teran ifoda etgan. Ayniqsa, urush va tahlikali yillar xotiralari bilan bog‘liq she‘rlarida u o‘zbek xalqining saxiyliigi, mehribonliigi va insoniyliigi haqida chuqur minnatdorlik bilan so‘z yuritadi. Yashab ijod etgan davrning og‘ir yillarida ko‘pchilik faqat o‘zini saqlab qolish haqida o‘ylagan bir paytda, o‘zbek xalqi boshqa millat vakillarini bag‘riga oldi, boshini siladi, ular bilan yeb turgan nonini baham ko‘rdi. Shoir bu xalqning insoniyliigi oldida bosh egib, cheksiz rahmatini she‘rlari orqali ifoda etdi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Aleksandr Faynberg yuragida jo‘sh urgan tuyg‘ularni qog‘ozga tushirgan, o‘z iztiroblari va quvonchlarini o‘quvchi bilan chin dildan baham ko‘rgan ijodkordir. U o‘zidan o‘chmas, tunganmas adabiy meros qoldirgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kuylagan, badiiy so‘zning sehrini yuragida his qilgan noyob shoirdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Faynberg, A. (2007). Chig‘ir. Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Faynberg, A. (2009). An Attempt to Autobiography.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
5. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
6. “Oqqushlar galasi” – O‘zbek she‘riyatidan Faynberg tomonidan rus tiliga tarjima qilingan she‘rlar to‘plami.

